

O'ZBEKISTONNING BIRLASHGAN MILLATLAR TASHKILOTI BILAN HAMKORLIGI

Ruziqulov Ortiq Isomiddinovich

Tarix yo'nalishi I-bosqich magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18018040>

Annotatsiya. Ushbu tezisda O'zbekiston Respublikasining Birlashgan Millatlar Tashkiloti bilan hamkorligi masalalari yoritiladi. Bunda BMT ning organlari, BMT ning ixtisoslashgan tashkilotlari, bola huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi konvensiyalar, statistik ma'lumotlar, ilmiy yondashuv asosida tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Birlashgan Millatlar Tashkiloti, YUNESKO, YUNESEF, Xavfsizlik kengashi, nizom, iqtisodiy va ijtimoiy kengash.

Kirish. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach 1992-yil 2-mart kuni Birlashgan Millatlar Tashkilotiga qo'shildi. 1993-yil Toshkent shahrida BMT vakolatxonasi ochildi va o'z faoliyatini olib bormoqda. 1992-yil sentyabrda O'zbekistonning tashabbusi bilan markaziy osiyoda xavfsizlik va hamkorlik masalalariga bag'ishlangan Toshkent kengash seminari tashkil etildi. 2001-yilda BMT ning xavfsizlik kengashining terrorizmga qarshi kurash bo'yicha maxsus qo'mitasi tashkil etildi. 2002-yil oktyabr oyida BMT bosh kotibi Kofe Ananning, 2010-yil aprel oyida BMT bosh kotibi Pan Gi Munning, 2017-yil BMT bosh kotibi Antoniu Guterrish O'zbekistonga tashrif buyurdi. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 12-sentyabrda BMT bosh assambleyasining 75-sessiyasida o'zbek tilida nutq so'zladi. Unda O'zbekiston va BMT hamkorligi yangi bosqichni boshlab berdi. Sh.Mirziyoyev 75-sessiyasidagi nutqida quydagilarni bayon qildi.,

- Pandimiya davrida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.
- Yoshlar siyosat.
- Markaziy Osiyoda davlatlari bilan hamkorlik.
- Afg'onistonni Markaziy Osiyoning ajralmas qismi sifatida qabul qilish.
- Global iqlim o'zgarishi va Orol muammosi.
- Jahonda qishloqlikka qarshi kurash.

Asosiy qism. O'zbekiston BMT ga a'zo bo'lgandan so'ng iqtisodiy va ma'daniy, inson huquqlari, sog'liqni saqlash, ekologiya kabi turli sohalarida o'zining ixtisoslashgan tashkilotlar orqali davlatlar orasidagi hamkorlikni yanada rivojlantirmoqda. Xalqaro valyuta jamg'armasi (IMF) xalqaro fuqarolik aviatsiyasi tashkiloti (ICAO), fan va ma'daniyat masalalari bo'yicha tashkilot (YUNESKO), xalqaro mehnat tashkiloti (ILO), johon sog'liqni saqlash tashkiloti (WHO) kabi ixtisoslashgan tashkilotlarning bugungi kunda o'rni kattadir. BMT ning jami 17 ta ixtisoslashgan tashkiloti faoliyat yuritib kelmoqda. Ularning har biri muayyan bir sohada xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga ixtisoslashgan. Albatta bu ixtisoslashgan tashkilotlar O'zbekistonda ham faoliyat yuritmoqda. 1989-yil 20-noyabrda BMT ning Bosh Assambleyasining 44-sessiyasida bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya qabul qilindi. O'zbekistonda 1992-yilda ratifikatsiya qilingan mamlakatimiz mustaqilligimizning dastlabki yillaridanoq bola huquqlarini himoyalashni asosiy o'ringa qo'ygan va bu BMT bilan hamkorlik qilib kelinmoqda. O'zbekiston BMT homiyligidagi ta'lim fan va madaniyat bilan shug'ullanuvchi xalqaro tashkilot YUNESKO bilan aloqalari tabora mustahkamlanib bormoqda. 1993-yil 29-oktyabrda YUNESKO ning Parijdagi qarorgohida O'zbekistonni YUNESKoga a'zolikka qabul

qilish marosimi bo'lib o'tdi. O'sha kuni Mirzo Ulug'bekning tavalludining 600 yilligini nishonlash YUNESKO dasturiga kiritildi.

1995-yilda YUNESKO tashabbusi bilan Amur Temurning 60 yilligini xalqaro miqyosida nishonlash qarori qabul qilindi. 1996-yil oktyabrda Parijda Amir Temurga bag'ishlangan bir haftalik xalqaro anjuman bo'lib o'tdi. O'zbekiston bilan YUNESKO o'rtasida hamkorlik yuqori darajada olib borilmoqda.

BMTning mustaqil ixtisoslashtirilgan agentligi bo'lgan Jahon banki ham mamlakatda tashkilot ishiga salmoqli hissa qo'shmoqda. Shu tariqa O'zbekiston hamda BMT o'rtasidagi ko'p qirrali hamkorlik muvaffaqiyat bilan ravnaq topmoqda. Bundan keyin ham O'zbekiston Respublikasining eng yirik xalqaro tashkilot BMT bilan munosabatlari tenglik va manfaatli sheriklik asosida rivojlanib boraveradi.

Xulosa.

1992-yil 2-mart kuni O'zbekiston Respublikasi Birlashgan millatlar tashkilotiga mustaqil suviren davlat sifatida a'zo bo'ldi, shundan bir yil o'tib BMT Toshkentda vakolatxonasini ochdi. Ushbu vakolatxona hozirda 25 ta agentlik jamg'arma va dasturlardan iborat bo'lib, ular mamlakatning barqaror rivojlanish maqsadida 2030-yilgacha mo'ljallangan rivojlanishning milliy ustivor yo'nalishlariga muvofiq shakllanishida ko'maklashmoqda.

Bugungi kunda O'zbekiston o'z ovozi va mavqeyiga ega bo'lgan a'zo sifatida BMT oldiga muhim va dolzarb masalalarni qo'ymoqda.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Birlashgan millatlar tashkilotining nizomi/ Inson huquqlari bo'yicha xalqaro tashkilotlar/ Mas'ul muharrir A.X.Saidov T 2004.
2. Mirziyoyev Sh.M. "Erkin va Farovon Demokratik davlatni birgalikda barpo etamiz. Toshkent: O'zbekiston, 2016-14,b.
3. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va O'zbekistonda inson huquqlari himoya qilish milliy tizimi/ millatlar jamoasi: A.X.Saidov, F.X.Bakayeva, K.Sh.Arslonova